

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHNING ASPEKTLARI

Mirxalilova Nargiza Akbarovna

*Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi*

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishning nazariy metododlogik asoslari, funksional savodxonlik bo'yicha ish olib borgan olimlar haqida, funksional savodxonlikning turlari, nazariy materialdan amaliyatda foydalana olish faoliyati mazmuni, boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikning amalga oshirish yo'llari, boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik darajasini oshirish bosqichlari, funksional savodxonlik darajasini oshirish yo'nalishlari va rivojlantirish darajalari masalalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, bilish faolligi, funksional savodxonlik, TIMSS xalqaro baholash dasturi, PIRLS xalqaro baholash dasturi.

Dunyo bo'yicha ta'lif sohasida olib borilayotgan o'zgarishlar rivojlanish tendensiyasiga mos ravishda boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni talablar asosida takomillashtirishni taqozo etadi. Xalqaro tashkilotlar va rivojlangan davlatlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha ta'lif konsepsiyasida «Butun hayot davomida sifatli ta'lif olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa etib belgilandi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarini funksional savodxonligini shakllantirish sohasidagi ilmiy izlanishlar yo'nalishlarini ko'rsatib beruvchi omil hisoblanadi. Xalqaro pedagogik tajribalar boshlang'ich sinf o'quvchilarning funksional savodxonligini baholash va shakllantirishning integrativ imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Respublika olimlaridan **M.Jumayev, A.Kudratova, K.Boymenova** U.Inoyatov, B.Xodjayev, M.Vahobov, O.Qo'ysinov hamda D.M.Mamatqulovlarning tadqiqotlarida maktab o'quvchilarida ijodiy faoliyat ko'nikmalari va malakalarni shakllantirish, mustaqil fikrlash, bilish faolligini oshirishning nazariy va amaliy asoslari o'r ganilgan; o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalariga oid tadqiqotlarni I.E.Sher nazarov, D.M.Maxmudovalar o'rgangan; xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish, unga tayyorgarlik ko'rish va o'quvchilarning ilmiy savodxonligini rivojlantirish, savodxonlik darajasini aniqlashga oid topshiriqlar ishlab chiqish kabi masalalar A.Radjiyev, A.A.Ismailov, X.J.Daminov, Q.K.Karimberdiyev, G.O.Tog'ayeva, N.A.Karimov, Z.A.Kosimova, G.A.Pirimov, D.Asqarova, S.R.Akbarova,

D.Norboyeva, D.Manapova, M.Uralova, B.Q.Haydarov, H.P.Ahmedov, M.Maxsudov, M.Boymuratova, E.Tursunovlарнинг ishlarida o‘z aksini topgan

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlarida funksional savodxonlik, ularni shakllantirish muammolari A. A. Veryayev, M. N. Nechunaeva, G. V. Tatarnikova, M.A. Xolodnaya A.A.Leontiyev, B. G. Kubaydullayevna, V.P.Bespalko, I.A. Volodar, A.M. Mitina, B.A.Ananev, Ch. Kupisevich va boshqa olimlarning izlanishlarida keng yoritilgan.

Xorijiy davlatlarda funksional savodxonlikka doir hamda **TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturi** ilmiy-tadqiqot ishlari Mary Lindquist, Ray Philpot, Ina V.S., Mullis, Kerry E. Cotter, Victoria A.S., Centurino Lee, R. Jones, Kelly, Martin, R.Tayler, J.Gilford, B.S.Blum, D.Xeynot, B.P.Bitinas, B.S.Blum, R.M.Gagne, P.Ya.Galperin, Dj.P.Gilford, A.M.Matyushkin, Ch.S.Nosal, M.Oboro kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

TIMSS, PIRLS xalqaro baholash dasturi Nizomida keltirilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining funksional savodxonligini milliy ta’lim tizim negizida shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini va baholash dasturi topshiriqlariga o‘xhash topshiriqlar ishlab chiqish hamda tatbiq etish mexanizmini takomillashtirish zarurati mavjud.

Tadqiqot doirasida masalani amalga oshirish jarayoni ishlab chiqildi va u quyidagicha loyihalandi:

Funksional savodxonlik- o’qish, matematika, tabiiy fanlar, moliyaviy va kompyuter savodxonligi, global kompetensiyalar va kreativ fikrlashni birlashtirish asosida olingan bilim, ko’nikma, malaka va kompetensiyalarni kundalik hayotda muvaffaqiyat bilan qo’llash bilan izohlanadi.

Funksional savodxonlik o‘z ichiga savodxonlikning quyidagi turlarni qamrab oladi: o’qish savodxonligi; matematik savodxonlik; tabiiy fanlar savodxonligi; moliyaviy savodxonlik; kompyuter savodxonligi; kreativ savodxonlik.

Tadqiqotimizda yuqorida qayd etilgan savodxonlik turlaridan funksional savodxonlikning uch turi doirasida tushunchalar tahlil qilindi hamda shu asosda tadqiqot metodikasi shakllantirildi:

1. O’qish savodxonligi;
2. Matematik savodxonlik;
3. Kreativ savodxonlik.

O‘quvchilarning funksional savodxonligi darajasi ko’rsatkichlarining xususiyatlari quyidagilardan iborat: maqsadni belgilsh; rejalashtirish; qaror qabul qilish; amalga oshirish; natijalarni baholash.

Nazariy materialdan amaliyotda foydalana olish faoliyati mazmuni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini quyidagi xususiyatlarini rivojlantiradi

- I. O‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiradi;

2. Kognitiv aqliy faoliyatni faollashtiradi;
3. O‘z-o‘zini o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
4. Universal ta’lim faoliyatini shakllantirishga hissa qo‘sish;
5. Matnning asosiy g‘oyasini ajratib ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish;
6. Matnni turli pozitsiyalardan tahlil qilishga yordam berish;
7. Ma’lumotni baholash, yangi tushunchalarni o‘rganishga yordam beradi;
8. Matnni tushunishga imkon berish, individuallikka e’tibor berishni o’rgatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida funksional savodxonlikning amalga oshirish yo’llari quyidagilardan iborat:

1. Mavjud bo‘lgandan ko‘ra asosiyroq, funksional savodxonlik haqidagi g‘oyalarni ishlab chiqish;
2. O‘quv natijalarining kodifikatorini tuzish, ushbu natijalarni mакtab va universitet fanlari bo‘yicha proyeksiyalash bilan funksional savodxonlikni batafsil tahlil qilish;
3. Funksional savodxonlikning ayrim tarkibiy qismlarining shakllanish bosqichlarini oydinlashtirish.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida funksional savodxonlik darajasini oshirish bosqichlari: mavzu doirasidan tashqarida bo‘lgan va mavzu doirasidagi bilimlar yordamida hal qilinadigan topshiriqlar, topshiriqlarning har birida, qoidaga ko‘ra, o‘quvchi uchun tushunarli bo‘lgan hayotiy vaziyatlar ifodalanadi, topshiriqlar mazmuni kundalik hayotda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga yaqin vaziyat xulq-atvor modelini ongli ravishda tanlashni talab qiladi, savollar sodda, tushunarli tilda beriladi, kundalik so‘zlashuv tilidan fan sohasiga tarjima qilish talab etiladi axborot taqdimotining turli shakllari qo‘llaniladi: rasmlar, jadvallar, diagrammalar, komikslar va boshqalar.

Funksional savodxonlik darajasini oshirish yo‘nalishlari quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Funksional savodxonlikning eng yuqori darajasiga yetmagan o‘quvchilar guruhini kamaytirish;
2. Iqtidorli va muvaffaqiyatga erishuvchi o‘quvchilar bilan ishslash samaradorligini oshirish;
3. Metakognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish - hayot davomida o‘rganish qobiliyati;
4. Barcha o‘quvchilarda bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Funksional savodxonlikni rivojlantirish darajalari quyidagicha:

1. Quyi - nisbatan tanish bo‘lgan muammoli vaziyat. Tanish vaziyatlarda barchaga ma’lum bo‘lgan matematik bilimlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash va oddiy matnni talqin qilish

2. O'rta - bunda hayotda duch kelgan ammo amalda qo'llanilmagan nisbatan murakkab vaziyatlarni tavsiflash. Ma'lumotlarni yana bir necha rasmiy usullari taklif qilinadi

3. Yuqori - murakkab notanish bo'lgan vaziyatlarni talqin qilish, chuqur fikrlash va ijodiy yondashuv talab qilinadi. Vaziyatning matematik modelini mustaqil yaratish, bahs-munozara qilish va mos yechish usulini yaratish

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, **boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikni shakllantirishda funksional savodxonlikning qamrab olgan turlariga**, nazariy materialdan amaliyotda foydalana olish faoliyati mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlikning amalga oshirish yo'llariga, boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik darajasini oshirish bosqichlari, funksional savodxonlik darajasini oshirish yo'nalishlari va rivojlantirish darajalariga qat'iy e'tibor berib, amaliyotga joriy etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirxalilova N.A. TIMSS 2023 mathematics assessment scope // Annals of Forest Research <https://www.e-afr.org/> 2022. 5399-5404-b.

2. Mirxalilova N.A. Use of the "Working with objects" methodology in preparing for international studies // American Journal of Research in Humanities and Social Sciences // ISSN (E): 2832-8019 Volume 13, | June, 2023. Pp: 152-154. www.americanjournal.org.

3. Mirxalilova N.A. TIMSS xalqaro tadqiqoti va uning ahamiyati // Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлendirиў. Илмий-методикалық журнал. 2022/5. 36-39 bet. (13.00.00) №20.

4. Mirxalilova N.A. Funksional savodxonlik tushunchasi // **O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2023, [1/2] ISSN 2181-7324. Falsafa** <https://science.nuu.uz/.Social> sciences. 216-218 b (13.00.00) №15.

5. Mirxalilova N.A. O'qish, matematik va kreativ savodxonlik funksional savodxonlikning asosi // Yosh olimlar Axborotnomasi. Maxsus son (4)2023 104-109 b. (13.00.00) № .

6. Mirxalilova N.A. Functional Literacy in Primary Education // AMERICAN Journal of Religious and Cultural Studies Volume 2, Issue 4, 2024 ISSN (E): Pp: 2993-2599.

7. Mirxalilova N.A. Use of the "working with objects" methodology in preparing for TIMSS international studies // «Әуезов оқулары-21: жаңа қазақстан-еліміздің болашағы» М. Әуезов атындағы оңтүстік Қазақстан университетінің 80 жылдығына арналған халықаралық ғылыми-тәжірибелік конференция еңбектері. ТОМ 2-1 Шымкент 2023 UDC 37 292-293 b.

8. Mirxalilova N.A. O'qish savodxonligini oshirishda PIRLS xalqaro tadqiqotining o'rni // Maktabgacha va boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo, yechimlar va rivojlanish istiqbollari xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari 18-noyabr 2022-yil. 175-178 b.

9. Mirxalilova N.A. Funksional savodxonlikni shakllantirish vositalari // Boshlang'ich ta'limgiz tizimiga integrativ yondashuv: nazariya va amaliyat. Respublika ilmiy va ilmiy-nazariy anjuman materiallar to'plami. 20-dekabr 2022-yil. 24-26 bet.
10. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik darajalarini oshirish // "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirishning zamонавиј holati va istiqbollari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. 22-dekabr 2022-yil. 738-741 bet.
11. Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limgizda TIMSS tadqiqotlari uchun matnli masalalar // "Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollar" mavzusidagi xalqaro qo'shma ilmiy-amaliy konferensiyasi Toshkent amaliy fanlar universiteti, 2023-yil 19-21-dekabr kunlari. <https://zenodo.org/records/10444474.370-372> bet.
12. Mirxalilova N.A. O'qish, matematik va kreativ savodxonlik – boshlang'ich ta'limgizda funksional savodxonlikning asosi // "Yangi O'zbekiston taraqqiyotida zamонавиј ta'limgiz: Muammolar va yechimlar" mavzusidagi ilmiy – amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. IYIU. 20-dekabr 2023-yil. 86-92 b.
13. Mirxalilova N.A. "Pedagogik ta'limgiz klasteri vositasida O'zbekistonda matematika ta'limgiz samaradorligini oshirish usullari" // TVCHDPI "Pedagogik ta'limgiz klasteri: muammo va yechimlar" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya 2021-yil 25-26 iyun 160-165 betlar.
- 14.. . Mirxalilova N.A. Boshlang'ich ta'limgizda funksional savodxonlik darajalarini oshirish // [Home / Archives / Vol. 18 No. 2 \(2023\): ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ | Выпуск журнала № 18 | Часть2.](http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4542) <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/4542>. 174-177 b.
- 15 Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. "Uzluksiz ta'limgizda kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida" // "Uzluksiz ta'limgiz" jurnali 2021 yil 5-son 9-12 betlar. (13.00.00) №9.
16. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. Funksional savodxonlik tushunchasi va uni shakllantirish usullari // Myғalлим ҳәм үзликсиз билимленидириў. Илмий-методикалық журнал. 2023-yil. 2/3- san. 340-346-bet. (13.00.00) №20.
17. Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. "PISA xalqaro dasturida matematik savodxonlik" // TVCHDPI "Pedagogik ta'limgiz klasteri: muammo va echimlar" xalqaro ilmiy amaliy konferensiya 2021-yil 25-26 iyun 1476-1480 betlar.
18. Mirxalilova N.A., Davlatova M.A. TIMSS xalqaro baholash dasturida miqdor tushunchasi va uning turlari // Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 9 | 2022 ISSN: 2181-1385 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 | SJIF: 5,7 | UIF: 6,1.
- 19 Mirxalilova N.A., D.M.Maxmudova. Funksional savodxonlikni shakllantirish usullari // "Uzluksiz ta'limgizda raqamli texnologiyalarni joriy etishning zamонавиј tendensiyalari va istiqbollari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman. 2022/12/20.
20. Mirxalilova Nargiza Akbarovna, Haydarova Marjona Rustam qizi. PIRLS tadqiqoti- o'qish savodxonligini oshirishning asosi // Ta'limgiz innovatsiyasi va integratsiyasi <http://web-journal.ru/> 17-son_4-to'plam_Mart -2024 ISSN: 3030-3621. 58-61 b Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/3827>

21. Mirxalilova Nargiza Akbarovna, Ibragimova Shaxlo Ilg‘or qizi. Boshlang‘ich sinf matematika darslarining tashkil qilishning o’rganilishi // Ta’lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 17(4), 62–66. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/3828> http://web-journal.ru/ 17-son_4-to’plam_Mart -2024 ISSN: 3030-3621
22. Usmanova Mashkura Mirzoroximovna. Содержание совершенствования методики обучения будущих учителей русского языка на основе рефлексивных инновационных технологий и ее научно-теоретические педагогические основы // European Journal of Interdisciplinary Research and Development. 2025-yil. Website: www.ejird.journalspark.org
23. Usmanova Mashkura Mirzoroximovna. Совершенствование методики обучения будущих преподавателей русского языка на основе рефлексивных инновационных технологий как актуальная проблема // academic research in modern science International scientific-online conference. 2025-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14723225>
24. Usmanova Mashkura Mirzoroximovna. Совершенствование методики преподавания русского языка на основе рефлексивных инновационных технологий для будущих учителей русского языка // тенденции развития науки "москва - 2025". 2025-yil.
25. M.M.Usmanova. Spiritual and Moral Self-Awareness: The Key to Harmony and Personal Development // Intersections of Faith and Culture: AMERICAN Journal of Religious and Cultural Studies. -18/04/2024, 2024-yil.
26. M.M.Usmanova. o’qish darslarida qo’llaniladigan metodlar // Ta’lim innovatsiyasi va integratsiyasi. -20.03.2024, 2024-yil.
27. N.T.Sobirova, M.M.Usmanova. O’zbekistonda inklyuziv joriy etilishi // Yosh olimlar axborotnomasi. -Maxsus son (4)2023, 2023-yil.